

AMIR TEMUR: HAYOTI, DAVLATCHILIGI VA TARIXIY MEROSI

Burxonov Kamronbek Omadjon o'g'li

*ADCHTI, Roman- german va slavyan tillari fakulteti, filologiya va tillar
o'qitish ta'lim yo'nalishi I - kurs talabasi*

E-mail: kburxonov2@gmail.com

Ilmiy rahbar: Najmiddinova Sh.Sh.

*ADCHTI, Ijtimoiy- gumanitar fanlar, pedagogika va psixologiya
kafedrasi o'qituvchisi*

Annotatsiya: mazkur maqola- tezisda bobokalonimiz sarkarda Amir Temur hayoti, o'z davridagi davlatchilik siyosati va uning tarixiy merosiga doir fikrlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: sarkarda, boshqaruv tamoyili, harbiy strategiya, mulk boshqaruvi.

Annotation: in den vorliegenden Beitrag handelt es sich um das Leben, die Regierungspolitik in seiner Zeit und das historische Erbe unseres Urgroßvaters, Feldheer Amir Temur.

Schlüsselwörter: das Feldheer, die Verwaltungsprinzipien, die militärische Strategie, die Eigentumsverwaltung.

Markaziy Osiyo tarixida Amir Temur nomi alohida hurmat bilan tilga olinadi. XIV asrning ikkinchi yarmida dunyoning katta qismini o'z ta'siri ostiga kiritgan bu buyuk sarkarda nafaqat harbiy sohada, balki davlat boshqaruvi, madaniyat, me'morchilik va diplomatiya yo'nalishlarida ham ulkan iz qoldirgan. Uning faoliyati tufayli Movarounnahr siyosiy jihatdan birlashtirildi, iqtisodiy hayot barqarorlashdi, ilm-fan va san'at yuksaldi. Amir Temur yaratgan "Temur tuzuklari" esa bugungi kunda ham o'z tarixiy, siyosiy va huquqiy ahamiyatini saqlab keladi. Mazkur referatda Amir Temurning hayoti, davlatni boshqarish tamoyillari, harbiy yurishlari, Temuriylar imperiyasining shakllanishi va uning madaniy merosi batafsil yoritiladi¹⁰.

Amir Temur 1336-yil 9-aprelda Kesh viloyatining Xoja Ilg'or qishlog'ida tug'ilgan. U barlos qabilasidan bo'lib, otasi Tarag'ay Bahodir o'z qavmi ichida hurmatli kishilardan biri edi. Temur yoshligidan jismonan baquvvat, aqlli, zukko va tadbirkor bo'lgan. U kamon

¹⁰ "Temurtuzuklari". — Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1991.

otish, qilichbozlik, chavandozlik, strategiya o'rganishga katta qiziqish bildirgan. Aynan ana shu sifatlar uni keyinchalik buyuk sarkardaga aylantirdi.

XIV asrning o'rtalarida Movarounnahrda siyosiy parokandalik yuzaga kelgan edi. Mo'g'ullar sulolasi zaiflashgan, mahalliy amir va beklar o'zaro hokimiyat uchun kurashayotgan edi. Temur dastlab kichik lashkar boshlig'i sifatida maydonga chiqadi, keyinchalik mahalliy hukmdorlar bilan ittifoqlar tuzib, o'z mavqeini mustahkamlaydi. 1360–1370-yillar davomida u asta-sekin siyosiy hokimiyatni qo'lga kiritib, Movarounnahni tartibga solish yo'lida qat'iy choralar ko'radi. 1370-yilda Temur Balx shahrida o'zini Movarounnahr hukmdori deb e'lon qildi. Bu tarixiy voqea Temuriylar davlatining barpo etilganligini anglatar edi. Shamoli, soliq tizimi, harbiy intizom, mulk boshqaruvi izchil tarzda qayta tashkil qilindi. Mamlakat ichida tartib o'rnatilishi savdo-sotiq, dehqonchilik va hunarmandchilik rivojiga kuchli turtki berdi.

Temur poytaxt sifatida Samarqandni tanlagan. XIV–XV asrlarda bu shahar “Sharqning gavhari”, “Dunyoning markazi” sifatida tanilgan. U yerda ko'plab saroylar, masjidlar, madrasalar, bog'lar va karvonsaroylar qurildi. Samarqand savdo va madaniyat markaziga aylandi. Temur o'z imperiyasini mustahkamlash uchun iqtisodiy hamda ma'muriy siyosatni izchil yuritdi.

Temurning harbiy iste'dodi, strategik fikrlashi va qo'shin boshqarish mahorati uni o'z davrining eng kuchli sarkardalaridan biriga aylantirdi. Uning yurishlari keng hududlarni qamrab olgan. 1370–1380-yillarda Temur Eron, Xuroson, Ozarbayjon, Armaniston va Gruziya tomon yo'naltirilgan bir qator yurishlar uyushtirdi. Bu hududlardagi tarqoqlikni yo'qotib, o'z hukmronligini o'rnatdi. Eron va Kavkaz hududlari Temuriylar imperiyasining muhim iqtisodiy va strategik qismiga aylandi¹¹. Xon To'xtamish Movarounnahrga tahdid solganida Amir Temur uch marta unga qarshi yurish qiladi. Nihoyat 1395-yilda Qunduzcha yonidagi jangda To'xtamish mag'lub etiladi. Bu g'alaba Oltin O'rda tanazzulining asosiy sabablaridan biri bo'ldi va Temurning nufuzi keskin oshdi. 1398-yilda Amir Temur Hindistonga yurish qiladi. Dehli sultoni Mahmud tog'li qabilalar qarshiligini yenga olmay, shaharni himoya qila olmagan. Temur qo'shinlari qisqa fursatda Dehlini egallaydi. Ushbu yurish Temurning Sharqdagi obro'sini yanada mustahkamlaydi. Temur Suriya, Halab, Damashq kabi shaharlarga yurish qilib, ularni o'ziga bo'ysundiradi. 1402-yilda Anatoliya hududida bo'lgan mashhur Anqara jangida Temur Usmonli sultoni Boyazid Yildirim

¹¹ Ahmadov B. “Temuriylar davri tarixi”. — Toshkent: Fan, 1999.

ustidan g‘alaba qozonadi. Bu jang Temurning eng yirik harbiy muvaffaqiyatlaridan biri bo‘lib, uning xalqaro nufuzini oshirdi¹².

“Temur tuzuklari” — Amir Temur yaratgan davlat boshqaruvi, harbiy intizom va jamiyat tartibi haqidagi qonunlar majmuidir. Tuzuklar ikki qismdan iborat:

- birinchi qism — Temurning o‘z hayoti davomida qo‘llagan boshqaruv tamoyillari;
- ikkinchi qism — harbiy tartib, qo‘shin boshqaruvi, amaldorlar vazifalari va jazolar tizimi.

Bobokalonimiz “kuch — adolatdadir” degan shiorni doimo amalda qo‘llagan. O‘z hukumronligi davrida mazkur an’anaga monad davlatchilik siyosatini olib brogan.

Amir Temur 1405-yil 18-fevralda Qashg‘ar tomon yurish boshlaganida O‘tror yaqinida vafot etadi. U Samarqanddagi Go‘ri Amir maqbarasiga dafn qilinadi. Temur o‘zidan keyin kuchli davlat, boy madaniy meros va dunyo tarixiga katta ta’sir qoldirgan. Uning avlodlari — temuriylar Yaqin Sharq va Markaziy Osiyo madaniyatini yuksak darajaga ko‘targan. Temurning davlat boshqaruvi tizimi, harbiy strategiyasi, shaharsozlik siyosati bugungi kunda ham o‘rganilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. “Temur tuzuklari”. — Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1991.
2. Bartold V.V. “Turkiston tarixi”. — Toshkent: Fan nashriyoti, 1993.
3. Muhammadjonov A. “Amir Temur”. — Toshkent: O‘zbekiston, 1996.
4. Ahmadov B. “Temuriylar davri tarixi”. — Toshkent: Fan, 1999.
5. Hamidulla Dadaboyev. “Amir Temur va temuriylar davlati”. — Toshkent: Universitet, 2014.

¹² Hamidulla Dadaboyev. “Amir Temur va temuriylar davlati”. — Toshkent: Universitet, 2014.